

# SO'X TUMANI HOKIMINING TABRIGI



Prezidentimizning 2017 yil, 7 avgust, 5136-sonli farmoni bilan Respublikamizda avgust oyining ikkinchi yakshanbasi "O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuni" sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Albatta, bu mazkur sohada fa'oliyat olib borayotgan va sidqidildan mehnat qilayotgan xodimlarga bo'lgan e'tibor nishonasidir.

Aytish lozimki, Vatanimizning obod bo'lishida, uning gullab-yashnashida Siz fidoiy kasb egalarining hissangiz beqiyos. Sizning bevosita sa'y-harakatingiz va fidokorona mehnatingiz tufayli Vatanning har bir go'shasi obodlikka yuz tutmoqda. Bugun bizning tumanimiz ham katta qurilish maydoniga aylanib qolgan - bu harakatlar zamirida inson va uning qadri, manfaati mujassamligi hech kimga sir emas.

Amalga oshirilayotgan ulkan ishlar va buniyodkorlik jarayonlarining izchil olib borilishida esa, bevosita davlatimiz rahbarining e'tibori asosiy omil bo'lib xizmat qilayotir. Zotan, o'tgan ikki yil davomida tumanimizda keng ko'lamlı qurilish-ta'mirlash va buniyodkorlik amalga oshirildi. Bunga birgina Prezidentimizning 2020 yil 8 avgustdagi 4798-sonli So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tarixiy qarori ham isbotlaydi. Mazkur qaror doirasida tumanimizda keng ko'lamlı, asrga tatigulik buniyodkorlik ishlari amalga oshirildi va bunday ezgu amallar bugun ham o'zining mantiqiy davomini topmoqda.

Amalga oshirilayotgan bunday ishlarda Siz - aziz quruvchilarining hissalarining beqiyosligini yana bir karra ta'kidlamoqchiman.

Qurilish sohasi deganda, ko'z o'ngimizda eng avvalo chiroqli va muhtasham binolar, yangi va zamonaviy inshootlar gavdalanadi. So'x tumanida ham qo'lli gul ustalar, mahoratli quruvchilarining o'ziga xos maktabi yaratilgan.

Men bugun marhum Mirzoqurban Odilov, Ma'rufjon Ziyodov, Abduqodir Jumayev kabi insonlarning nomini faxr bilan tilga olaman. Chunki bu fidoiy insonlar So'xning obodligi yo'lida astoydil mehnat qilishgan. Ular boshlangan ezgu ishlarni bugun ularning shogirdlari va farzandalri davom ettirishmoqda. Ishonchim komilki, tumanimiz kelgusida ushbu fidoiy insonlarning sa'y-harakatlari tufayli eng obod va chiroqli tumanga aylanadi.

Fursatdan foydalanib, Sizlarni bugungi kasb bayramingiz bilan samimiyl qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, omad va baxt tilayman. Vatan ravnaqi va obodligi yo'lida Sizlarga yangi kuch va g'ayrat tilayman. Kasb bayramingiz yana bir karra muborak bo'lsin!

**S. S. Sayidmusayev - So'x tumanı hokimi**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-13 14:44:50